

**TEXNIKUMLARDA DUAL TA'LIMNI TIKUVCHILIK YO'NALISHI
BO'YICHA JORIY QILINISHI VA ISTIQBOLLARI****M.Gafurova***Shayxontohur tuman politexnikumi maxsus fanlar kafedrası muduri**madinagafurova1959@gmail.com Tel: (+998909342662)***ANNOTATSIYA**

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son qarori asosida texnikumlarda ta'lim sifatini oshirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada ta'lim sifatini kafolatlash, pedagog kadrlarni malaka oshirish, dual ta'limni joriy etish, amaliyot va ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlarini kengaytirish, raqamli boshqaruv va sifat nazorati tizimlarini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari texnikum bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardoshligi, kadrlar salohiyatini oshirish va ta'lim sifatini barqaror ta'minlash uchun tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar texnikum, ta'lim sifati, PQ-316, dual ta'lim, pedagog kadrlar, amaliy ko'nikmalar, xalqaro dasturlar, raqamli boshqaruv, akkreditatsiya, sifat nazorati

ANNOTATION

This scientific article analyzes issues of improving the quality of education in technical colleges based on the Decree No. PQ-316 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 23, 2025. The article examines ways to ensure education quality, enhance the professional development of teaching staff, implement dual education, integrate practical training with production, expand international and joint educational programs, and develop digital management and quality control systems. The research results provide recommendations for increasing the competitiveness of technical college graduates in the labor market, enhancing workforce potential, and ensuring sustainable education quality.

Key words technical college, education quality, PQ-316, dual education, teaching staff, practical skills, international programs, digital management, accreditation, quality control

Kirish

Barchamizga ma'lumki, ta'lim jarayoniga katta e'tibor qaratgan mamlakatlar bugun rivojlangan davlatlar qatorida turibdi. Binobarin, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, kadrlar masalasi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy figuralari hisoblanadi. Shu bois O'zbekistonda ham bu borada bir qator islohotlar o'tkazib kelinmoqda.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining bir bo'g'ini sifatida professional ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarda professional ta'lim, kasbiy kompetentliklarini

shakllantirish, professional ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish masalasi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Turli rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish, ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtirish, milliy qadriyat va an'analarimizni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga moslashtirish, joriy etish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Prizidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812- sonli "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2020 yil 7 avgustdagi 466-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 394-son "Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar ni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan 637-son O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlar ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish faoliyatini takomillashtirishning huquqiy asoslari hisoblanadi [1;2;3].

Bugungi kunda yengil sanoat, xususan tikuvchilik sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Sanoatning ushbu yo'nalishida yuqori malakali tikuvchilar, texnologlar, bichuvchilar va konstruktiv mutaxassislariga bo'lgan talabning ortib borishi kasb-hunar texnikumlarida dual ta'lim tizimini joriy etishni zarur qiladi. Maqolada dual ta'limning tikuvchilik yo'nalishiga joriy etilishi, uning afzalliklari va istiqbollari yoritiladi.

Dual ta'limning mohiyati

Dual ta'lim — nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiruvchi tizim bo'lib, o'quvchilarning o'quv vaqtining ma'lum qismi ta'lim muassasasida, boshqa qismi esa ishlab chiqarish korxonalarida o'tadi. Tikuvchilik sohasida bu tizim amaliy ko'nikmalarni tez egallash, ishlab chiqarish jarayonini chuqur o'rganish va bandlikni oshirishga xizmat qiladi. [4].

Dual ta'limni joriy etishda texnikumlarning vazifalari

- Tikuvchilik korxonalari bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish.
- O'quv dasturlarini ishlab chiqarish talablariga moslab yangilash.
- O'quvchilarning amaliyot ulushini oshirish (40–60%).
- O'qituvchilarning ishlab chiqarishdagi malakasini oshirish.

Dual ta'limning afzalliklari

- Amaliy ko'nikmalar tez shakllanadi.
- Ishlab chiqarishning to'liq jarayonini o'rganish imkoniyati.
- Bitiruvchilarning bandlik darajasi oshadi.

— Korxonalar uchun tayyor malakali kadrlar yaratiladi.

Muammolar

- Hamkorlik mexanizmlarining to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi.
- Zamonaviy jihozlarning yetishmasligi.
- Amaliyot vaqtida o‘quvchilarni rag‘batlantirish masalalari.
- O‘qituvchilarning ishlab chiqarishdan uzoqlashib borishi.

Istiqbollar

- Yirik yengil sanoat klasterlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.
- Raqamli texnologiyalarni joriy etish (CAD/CAM, avtomatlashtirilgan bichish).
- Amaliyot davrida o‘quvchilarga ish haqi to‘lash mexanizmini kengaytirish.
- Xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish.

Xulosa

Tikuvchilik yo‘nalishida dual ta’limning joriy etilishi ta’lim sifatini oshiradi, amaliy tajribaga ega malakali mutaxassislar yetishib chiqishini ta’minlaydi va sohaning barqaror rivojiga xizmat qiladi. Dual ta’limning yanada rivojlanishi yengil sanoat korxonalarini raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni 2019 yil 6 sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-sonli Qarori 2020 yil 7 avgust.
4. Nodirov, J. M. (2023). PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA REFLEKSIV YONDASHUV. Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke, 1(11), 894-900.